



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

N^o4(2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKIDOR KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich	



O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Mamanazarov Oybek Shomurodovich

Renessans universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası professori

Email: maxmur77@mail.ru

ORCID: 0009-0004-8221-8894

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari sharoitida uy-joy fondini boshqarish tizimining rivojlanish tendensiyalari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda uy-joy fondining kengayishi, hududlar kesimidagi farqlar, infratuzilma bosimi hamda boshqaruv tizimidagi muhim jihatlar o'rganilgan. Shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish, renovatsiya dasturlarini rivojlantirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, uy-joy fondi, boshqaruv tizimi, renovatsiya, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, infratuzilma, hududiy rivojlanish, xizmatlar sohasi, boshqaruv samaradorligi, uy-joy siyosati.

Abstract. This article examines the development trends of the housing management system in Uzbekistan under the conditions of urbanization, as well as its economic and social significance. The study analyzes the expansion of the housing stock, regional disparities, infrastructure pressure, and key aspects of management processes. Furthermore, it proposes recommendations aimed at improving the activities of homeowners' associations, enhancing renovation programs, and increasing overall management efficiency.

Key words: urbanization, housing stock, management system, renovation, homeowners associations, infrastructure, regional development, service sector, management efficiency, housing policy.

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции развития системы управления жилищным фондом в условиях урбанизации в Узбекистане, а также её экономическое и социальное значение. В исследовании рассматриваются расширение жилищного фонда, региональные различия, нагрузка на инфраструктуру и ключевые аспекты управления. Кроме того, разработаны предложения по совершенствованию деятельности товариществ собственников жилья, развитию программ реновации и повышению эффективности управления.

Ключевые слова: урбанизация, жилищный фонд, система управления, реновация, товарищества собственников жилья, инфраструктура, региональное развитие, сфера услуг, эффективность управления, жилищная политика.

KIRISH

Urbanizatsiya zamonaviy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makrojarayonlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'rifiga ko'ra, urbanizatsiya faqat shahar aholisi ulushining ortishi emas, balki aholining yashash makoni, iqtisodiy faolligi, infratuzilma, mehnat bozori va xizmatlar tizimining shaharlashuvi bilan bog'liq ko'p qirrali o'zgarishlar majmuasidir¹. Ushbu tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyo aholisining 55 foizi shaharlarda yashaydi va 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 68 foizga yetishi kutilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, urbanizatsiya XXI asrda iqtisodiy o'sish, hududiy raqobatbardoshlik va aholi farovonligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylangan.

O'zbekistonda ham urbanizatsiya jarayoni so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga respublika doimiy aholisi 38 236,7 ming kishini tashkil etgan bo'lib, shundan 19 471,7 ming kishi shahar joylarda, 18 765,0 ming kishi qishloq joylarda istiqomat qilgan. Natijada shahar aholisi ulushi 50,9 foizga yetgan. Solishtirish uchun, 2025-yil 1-yanvar holatida bu ko'rsatkich 50,6 foiz bo'lgan. Demak, urbanizatsiya darajasi bir yil ichida ham o'sish tendensiyasini saqlab qolgan. Bu jarayon davlat siyosatining strategik maqsadlari bilan ham muvofiq keladi, chunki “O'zbekiston — 2030” strategiyasida urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish vazifasi belgilab qo'yilgan.

1 БМТнинг расмий сайти маълумотлари. <https://www.un.org/uk/desa/68-world-population-projected-live-urban-areas-2050-says-un>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy fondini boshqarish kompaniyalari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish hamda soha korxonalarida yuzaga keluvchi risklarni boshqarish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Eugene N. Gurenko & Olivier Mahul, Howard Kunreuther, Carolyn Kousky, Swenja Surminski, W. J. Wouter Botzen, J. David Cummins kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida uy-joy fondini majburiy sug'urtasi keng qamrov va tez to'lovni ta'minlashi, xonadon egalarining past ehtimolli-yuqori zararli xatarlarni e'tiborsiz qoldirishiga sabab bo'ladigan xulqiy og'ishlar, kam ta'minlanganlar uchun vaucherlar, shuningdek, ko'p yillik polislar taqdim etish, manzilli subsidiyalar masalalari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mamlakatimizda uy-joy fondini boshqarish kompaniyalari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xizmatlar sifatini boshqarish hamda boshqaruv jarayonlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari R. I. Nurimbetov, A. D. Metyakubov, V. U. Yodgorov, D. Ya. Butunov, T. A. Xasanov, S. K. Salaev, I. X. Davletov, A. S. Sultanov, F. Ergashev, D. A. Berdiyeva, R. N. Xolmurodov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati, funksiyalari, ishtirokchilari va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va xulosalar chiqarish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonini faqat shahar aholisi salmog'ining ortishi bilan izohlash yetarli emas. Mazkur jarayon bugungi kunda aholining hududlar kesimida qayta taqsimlanishi, ichki migratsiya oqimlarining faollashuvi, xizmatlar sohasining kengayishi, qurilish bozorining jadallashishi hamda uy-joy fondi tarkibining hududiy jihatdan o'zgarishi kabi ko'p qirrali tendensiyalar orqali namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda uy-joy fondining umumiy maydoni barqaror va yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2025-yillarda uy-joy fondining umumiy maydoni qariyb 1,3 barobarga ortgan. Bu ko'rsatkich mamlakatda demografik jarayonlar (aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya) hamda iqtisodiy islohotlarning uy-joy siyosati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Aholi sonining doimiy o'sishi va shaharlarning kengayishi uy-joy qurilishiga bo'lgan talabni keskin oshirib, yangi turar-joy massivlari barpo etilishini taqozo qilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy-joy fondi kengayishining asosiy drayverlaridan biri – bu aholining uyga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Xususan, ipoteka tizimining rivojlanishi aholining uy-joy sotib olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, davlat subsidiyalari yangi uy-joy qurilishlarini qo'llab-quvvatlamoqda, davlatning "Arzon uy-joylar", yosh oilalar va ijtimoiy ehtiyojmand oilalar uchun uy-joy qurilishi dasturlari keng ko'lamli ijtimoiy ta'minot mexanizmini shakllantirgan. Natijada davlatning uy-joy qurilishiga qaratilgan rag'batlantiruvchi siyosati bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashib, sektorning tezkor o'sishini ta'minlamoqda (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda kishi boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha yashash maydonining o'sish dinamikasi (m²)

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.




Uy-joy fondi kengayishida qurilish sektorining rivoji alohida ahamiyatga ega. Yirik infratuzilma loyihalari, yo'llar, maktablar, shifoxonalar, muhandislik tarmoqlari bilan integratsiyalashgan turar-joy massivlari barpo etilmoqda. Bu jarayonlar qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarishining kengayishi, qurilish kompaniyalari o'rtasida raqobatning kuchayishi, hududlar kesimida qurilish hajmlarining oshishi kabi omillarni shakllantirdi. Buning natijasida uy-joy fondi kengayishi nafaqat miqdoriy, balki hududiy diversifikatsiya jihatidan ham ko'zga tashlanmoqda. Aholi turmush farovonligini oshirishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida uy-joylarni qurish va foydalanishga topshirish ishlarining jadallashuvi natijasida yillar davomida aholi sonining o'sib borishiga qaramasdan umumiy uy-joy fondi hajmi va shinamligi ortib bordi. 2015-yilda 15,2 m² ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 16 m² ni tashkil etgan va 2025-yil yakuniga kelib 18,9 m² ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda uy-joylarning umumiy maydoni (ming m²)³

2-rasmdagi uy-joy statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda uy-joylarning umumiy maydoni 2021-yil – 549 mln m²; 2022-yil – 636,4 mln m²; 2023-yil – 658,4 mln m²; 2024-yil – 692,5 mln m²; 2025-yil – 703,8 mln m². Bunga mos ravishda Toshkent shahridagi uy-joylarning umumiy maydoni ham so'nggi yillarda sezilarli o'sdi (3-rasm).



3-rasm. Toshkent shahridagi uy-joylarning umumiy maydoni (ming m²)⁴

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida.



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, Toshkent shahridagi uy-joylarning umumiy maydoni 2020-yilda 60,3 ming kv. m ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 69,8 ming kv. m ni tashkil etgan va 2025-yil yakuniga kelib 71,2 ming kv. m ni tashkil etgan.

Uzoq muddatli tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining institutsional va demografik asoslari ancha avval shakllana boshlagan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2001–2021-yillarda shahar aholisi ulushi 37,2 foizdan 50,7 foizgacha ko'tarilgan. Bu mamlakatda urbanizatsiya bir martalik emas, balki izchil davom etayotgan jarayon ekanini anglatadi. Shu bilan birga, aholi zichligi ham yildan-yilga ortib bormoqda: 2026-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha o'rtacha zichlik 1 kv. km ga 85,2 kishiga yetgan. Ammo hududlar kesimida farq juda katta: 2025-yil boshida eng yuqori zichlik Toshkent shahrida 6 948,1 kishi, Andijon viloyatida 804,9 kishi va Farg'ona viloyatida 613,1 kishi bo'lgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida 9,9 kishi va Qoraqalpog'iston Respublikasida 12,2 kishini tashkil etgan. Bu esa urbanizatsiyaning mamlakat bo'yicha bir xil emas, keskin hududiy farq bilan kechayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning eng kuchli shakllanishi Toshkent shahri va uning atrofiga to'g'ri kelmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga Toshkent shahri aholisi 3 178,1 ming kishiga yetgan. 2025-yil yakunlarida Toshkent shahri mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda 19,9 foiz ulush bilan eng katta hissa qo'shgan hudud bo'ldi. 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida esa shahar yalpi hududiy mahsuloti tarkibida xizmatlar sohasi ulushi 62,3 foiz, qurilish ulushi 11,4 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 2025-yilda Toshkent shahriga 90 286 kishi ko'chib kelgan va 70 282 kishi ko'chib ketgan bo'lib, bu migratsion harakatning eng katta qismi aynan poytaxtga to'g'ri kelayotganini anglatadi. Demak, Toshkent shahrida urbanizatsiya sanoatlashuvdan ko'ra ko'proq xizmatlar iqtisodiyoti, qurilish, boshqaruv, ta'lim va mehnat bozori konsentratsiyasi asosida kechayotganligini ko'rsatadi.

Urbanizatsiyaning uy-joy fondi va shahar infratuzilmasiga ta'siri ham kuchayib bormoqda. Ochiq e'lon qilingan so'nggi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi respublika bo'yicha 18,9 kv. m, shahar joylarda 19,1 kv. m va qishloq joylarda 18,7 kv. m bo'lgan. Shu yilda turar-joy qurilishi sur'ati bilan aholi o'sishi sur'ati o'rtasidagi nisbat 1,027 ni tashkil etgan, ya'ni mamlakat miqyosida uy-joy qurilishi aholi o'sishidan biroz yuqori sur'atda kechgan. Ammo bu ko'rsatkich milliy o'rtacha holatni ifodalaydi; Toshkent shahri, Toshkent viloyati va vodiy hududlarida talabning konsentratsiyasi yuqori bo'lgani uchun infratuzilma bosimi, yer resurslari tanqisligi va mavjud uy-joy fondini yangilash ehtiyoji hali ham saqlanib qolmoqda.

So'nggi islohotlar ham urbanizatsiyani alohida boshqaruv obyekti sifatida ko'ra boshlanganini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli⁵ qarori bilan "Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi" tashkil etildi⁶. Qarorda shahar hududlarini kompleks qurish dasturlarini ishlab chiqish, uy-joy va infratuzilma uchun "yer banki"ni shakllantirish, shaharsozlik hujjatlarini elektron portal orqali ochiqlash, 14 ta yirik aglomeratsiyada kompleks qurilish dasturlarini tayyorlash va uy-joyning yagona hayotiy sikli bo'yicha elektron platformani takomillashtirish vazifalari belgilangan. Bu urbanizatsiya siyosatining endi oddiy qurilish emas, balki hududiy rejalashtirish, raqamlashtirish va bozor infratuzilmasini uyg'un boshqarish bosqichiga o'tayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya sharoitini chuqur tahlil qilishda statistik baza sifatini oshirish masalasi ham muhim. O'zbekistonda 2026-yil 15-yanvar holatiga ko'ra aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o'tkazilishi belgilangan. Ushbu ro'yxatga olish natijalari hududlar kesimida shahar va qishloq aholisi tarkibi, migratsiya, bandlik, uy-joy sharoiti va shaharlashuv darajasini yanada aniq baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, qo'mitaga qurilish hajmini bosqichma-bosqich oshirish vazifasi ham yuklatildi. Jumladan, 2026-yilda 140 mingta kvartira qurish rejalashtirilgan bo'lsa, 2027-yilda 150 mingta va 2028-yilda 160 mingta kvartirani tashkil etishi belgilandi.

Shu o'rinda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Xalqaro tashkilotlarning hisob-kitoblariga ko'ra, aholi punktlari tartibsiz kengayib borishi ayrim hududlarda kelgusida ekin yerlarining tanqisligiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan eskirgan uy-joy fondini yangilash, uy-joy qurilishida renovatsiya ulushini oshirish zarur. Bunda renovatsiya hissasini oshirish lozim.

Turar-joylarni keng qamrovli renovatsiya, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, ulardan samarali foydalanish, o'z vaqtida ta'mirlash va qayta tiklash, shuningdek, ko'p qavatli uylarda tozalik va obodonlikni ta'minlash aholiga munosib yashash sharoitlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Mustahkam normativ-huquqiy asosga ega davlatda izchil tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uy-joylardan

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-7850383>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli Qarori, 2025-yil 19-noyabr.



foydalanish va ularni boshqarishning tubdan yangi tizimini shakllantirish imkonini beradi. So'nggi 5 yil ichida uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish, ko'p qavatli uylarda tom, podval, fasad, birinchi qavat, lift va sug'orish tarmoqlari, shuningdek beton piyodalar yo'laklarini rekonstruksiya va renovatsiya qilishga doir qator qarorlar qabul qilindi.⁷ Bugungi kunda 320 mingdan ortiq ko'p kvartirali uyga 4 mingdan ziyod uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tarmoq bo'yicha olib borilgan tahlillar ko'rsatadiki, ko'p kvartirali uylarni saqlash, ulardan foydalanish va xizmat ko'rsatish jarayonida uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, ijro hokimiyati organlari bilan uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, ko'p kvartirali uy-joy fondini saqlash ustidan tizimli nazoratni kuchaytirish va takomillashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, texnik ekspluatatsiya talablari hamda aholining xavfsiz hayotini ta'minlashga oid me'yorlarga rioya etish darajasi izchil oshirib borilmoqda⁸. Shuningdek, ko'p kvartirali uylarda ta'mirlash ishlarini tartibga soluvchi aniq qoidalar va shartlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish orqali aholining ehtiyoj va takliflarini yanada samarali qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda⁹.

Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, boshqarish organlari bilan mulkdorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, aholiga sifatli xizmat ko'rsatilishini hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov intizomini ta'minlash, shuningdek sohaga yetarli malaka, ko'nikma va moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan boshqarish organlarini jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-278-son¹⁰ qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda renovatsiya dasturini amalga oshirishni tashkiliy hamda huquqiy jihatdan ta'minlash masalalariga ham alohida urg'u berilgan.

O'zbekistonda uy-joylar renovatsiyasi dasturiga ko'ra, 2025-yilda 20 ming xonadon qurish rejalashtirilgan. Uy-joy qurishda asosiy e'tiborni eskirgan uylar o'rnida renovatsiya asosida zamonaviy ko'p qavatli uylarni ko'paytirishga qaratish zarur. Bunda yerdan foydalanish samaradorligi 4–5 karra oshadi, kommunikatsiya xarajati 2 karra kamayadi.

Renovatsiya nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki aholi turmush sifatini tubdan o'zgartirish imkonini ham beradi. Yangilangan hududlarda yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi, savdo xizmatlari ko'payadi, bu esa iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yaqin yillarda aholi soni 40 million nafarga yetishi kutilmoqda. Bunday o'sishda yiliga 140–150 ming xonadonga talab paydo bo'ladi. Bu har yili qo'shimcha 2 ming gektar yer kerak, degani. Lekin yer maydonlari ham cheklangan.

Bunday holatda renovatsiya dasturi qo'l keladi. Masalan, respublikada 17 mingta 2–3 qavatli eski uylar bor. Ulardagi sharoit, muhit bugungi zamonga munosib emas. Elektr, gaz, suv va boshqa infratuzilmalar eskirgan, ko'plarida oqova tarmog'i ham yo'q. Shularning o'rnida zamonaviy uylar qurilsa, hozirgidan 3 barobar ko'p aholi joylashadi. Asosiysi, xonadonlarda yangi kommunikatsiya, issiq va sovuq suv, oqova tarmog'i bo'ladi.

Shu bois xorijiy tajriba asosida renovatsiya dasturlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bunday dasturlar 3 bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Birinchi bosqichda shahar va tumanlarda renovatsiyaga mos hudud tanlanib, loyiha ishlab chiqiladi. Mulkdorlarga yangi uy yoki kompensatsiyalar taklif qilinadi. Barcha mulkdorlar bilan kelishuvlar yakka-yakka, notarial tartibda tasdiqlanadi. Loyihalar uchun har bir hududda renovatsiya jamg'armalari tashkil etiladi.

Ikkinchi bosqichda renovatsiya dasturi hududiy va respublika kengashlari tomonidan ko'rib chiqilib, qurilish tashkiloti aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda uy-joylar qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Xususan, birinchi bosqichda renovatsiya asosida 20 ming xonadon qurilishi mo'ljallangan.

Dasturda davlat uy-joy infratuzilmasini kapital va joriy ta'mirlash, hududlarni obodonlashtirish, lift uskunalarni ta'mirlash va almashtirish, shuningdek ko'p qavatli uylarni saqlash, ulardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi belgilangan.¹¹ Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining o'z mablag'lari hisobidan, tijorat banklari, mahalliy budjetlar, O'zbekiston Respublikasi Qurilish-kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining Uy-joy qurilishi jamg'armasi mablag'lari hisobidan, xalqaro moliyaviy

7 R.Nurimbetov, I.Davletov, K.Tashmuxe'dova, A.Sultanov. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 2, mart-aprel, 2019 yil.

8 R.Nurimbetov, I.Davletov, K.Tashmuxe'dova, A.Sultanov. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 2, mart-aprel, 2019 yil.

9 Denise Finney. Affordable Housing: Investing for Profit. 2020.

10 <https://lex.uz/docs/-6581528>

11 Nurimbetov R., Davletov I., Tashmuxe'dova K., Sultanov A. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, No 2, 2019-yil, mart-aprel.



tashkilotlarning kreditlari hisobidan va lizing asosida bu ishlarni amalga oshirish uchun 1,8 trln so'm yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Taklif etilayotgan yechimni amaliyotga tatbiq etish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Jumladan, ko'p xonadonli uy-joy fondining texnik holatini va undan oqilona foydalanishni sezilarli darajada yaxshilash, ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyati yaratiladi¹². Infratuzilmasi rivojlangan ko'p qavatli turar-joylarda aholiga yanada qulay va zamonaviy yashash sharoitlari yaratiladi. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat organlari hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish jarayonida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyati ta'minlanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda uy-joy mulkdorlari shirkatlari ko'p kvartirali uylardan samarali foydalanish va ularni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqda. Xususan, uy-joylarni mavsumiy foydalanishga o'z vaqtida va sifatli tayyorlash, turar-joy maydonlarini kapital hamda joriy ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish bo'yicha muntazam ishlar olib borilmoqda¹³. Ushbu jarayonlarni tizimli asosda tashkil etish esa sohaga oid eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017-sonli¹⁴ Farmoni imzolandi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2900-sonli¹⁵ qarori qabul qilindi. Bu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirishda muhim omil bo'ladi.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, uy-joylarni boshqarish yangilik emas va professional xizmat ko'rsatish texnologiyalari va standartlariga asoslangan innovatsion yondashuvlar yordamida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda uy-joy fondi yildan-yilga kengayib borsa-da, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi asosan Toshkent shahri va viloyat markazlarida qoniqarli. Ta'kidlab o'tish mumkinki, O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi mamlakatning demografik o'sishi, ichki migratsiya, xizmatlar iqtisodiyoti va hududiy iqtisodiy tuzilmalar transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq ekani aniqlanadi. Mazkur jarayon hududlar bo'yicha bir xil kechmayapti: Toshkent shahrida u servis iqtisodiyoti orqali, Farg'ona vodiysida yuqori aholi zichligi va ko'p markazli joylashuv orqali, Navoiy va Toshkent viloyatida sanoat-investitsiya drayverlari orqali, agrar hududlarda esa tuman markazlari va lokal xizmat bozorlari orqali namoyon bo'lmoqda. Demak, O'zbekiston sharoitida urbanizatsiyani faqat shahar aholisi ulushi bilan emas, balki aholi zichligi, ichki migratsiya, yalpi hududiy mahsulot tarkibi, uy-joy fondi holati va infratuzilma bosimi kabi integral mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatda uy-joylardan foydalanish va ularni boshqarishni yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni izchil amalga oshirish lozim:

qurilish-ta'mirlash korxonalarini bilan uy-joy mulkdorlari va ularning shirkatlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish; sohaga oid qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarning ahamiyatini keng targ'ib qilish va tushuntirish bo'yicha muntazam ishlarni olib borish zarur;

shuningdek, davlat hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan (jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali) keng foydalanib, uy-joylardan oqilona foydalanish, ularni ta'mirlash, ekspluatatsiya qilish va boshqaruv tizimini takomillashtirish, uy-joy kommunal xizmatlari sifatini oshirish hamda xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish imkoniyati yaratiladi;

bundan tashqari, yangi qurilishlarda ham, mavjud uy-joylarni ekspluatatsiya qilish jarayonida ham energiya tejamkor materiallar, jihozlar, uskunalar va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, ilg'or xalqaro tajribani o'rganib, amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi;

ko'p kvartirali uylarning konstruktiv elementlarining eskirishi va shikastlanishini, texnik holatini, loyihaviy-hajmiy yechimlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini inobatga olgan holda, o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlash bo'yicha zarur tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda uy-joylardan samarali foydalanish va ularni boshqarish tizimini takomillashtirish kompleks, uzviy va uzoq muddatli yondashuvni talab etadi. Bu borada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni mustahkamlash, sohadagi huquqiy-me'yoriy bazaning amaldagi ta'sirchanligini oshirish, davlat

12 Nurimbetov R., Davletov I., Tashmuxeimedova K., Sultanov A. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, No 2, 2019-yil mart-aprel.

13 Методические рекомендации управляющим организациям по управлению и учету расходов на содержание общего имущества в многоквартирном доме. https://uyushma.uz/ff/metodicheskie_rekomendacii_upravlyayushchim_organizaciyam.pdf

14 <https://lex.uz/ru/docs/-3170224>

15 <https://lex.uz/docs/-3179938>



va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, uy-joy fondining texnik holatini muntazam nazorat qilish orqali uning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash mumkin. Natijada aholiga ko'rsatilayotgan uy-joy-kommunal xizmatlar sifati yuksaladi, boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va samaradorligi ortadi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi hamda mamlakatda zamonaviy, iqtisodiy jihatdan samarali va ijtimoiy yo'naltirilgan uy-joy boshqaruv tizimini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998-yil 24-dekabr. URL: <https://lex.uz/acts/-106136>
2. N.V.Vasileva Жилищная сфера крупного города: проблемы управления и стратегия развития. – SPb: SIBGIEU, 2002.
3. Selyutina L.G. Проблемы оптимизации структуры жилищного строительства в крупном городе в современных условиях. – SPb.: SPbGIEU, 2002.
4. Nurimbetov R.I., Davletov I.X., Salayev S.K., Mirzaxmedov B.X., Hasanov T.A. "O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: TAQI, 2020.- 251 b.
5. O.Mamanazarov, A.Karimova. Issues of Improving the Financial State of Management Service Companies. (2025). International Journal of Scientific Trends, 4(8), 1-6. <https://sciyentiftrends.org/index.php/ijst/article/view/610>
6. D.Inoyatova. Information support in housing fund management. (2025). Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(5), 95-101. <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/4166>
7. D.Inoyatova. Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnalining, 2025 yil, № 4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5210>
8. D.Inoyatova. O'zbekistonda so'nggi yillarda uy-joy fondining o'sishi holati. "Innovations in technology and science education" scientific journal, Published in proceedings of 31th conference of "Prospects of development of science and education", APRIL 2025.
9. D.Inoyatova. Analysis of housing stock growth dynamics in Uzbekistan in recent years. "Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences" International scientific-online conference, Great Britain, WOC, 2025 may <https://zenodo.org/records/15393349>
10. <https://sciyenceresearch.uz/index.php/PDSE/article/view/1022>
11. <https://lex.uz>
12. <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>